



## 2023- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


2023- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,6 % ni tashkil etdi.

**118,6 %**

**2076,7  
mlrd. so'm**


Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 82,7 %, yoki 1716,1 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 108,7 % tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 17,3 %, yoki 360,6 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 martani tashkil etdi.



**Markazlashgan moliyalashtirish  
manbalari hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**

***O'tgan yilning mos davriga  
nisbatan, % da***



**Markazlashmagan moliyalashtirish  
manbalari hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**


***O'tgan yilning mos davriga  
nisbatan % da***



2023- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 595,3 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,7 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,3 % i yoki 255,5 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 890,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘shir sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 192,2 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, mlrd. so‘m**



Shuningdek, Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 159,9 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,7 % ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 63,2 % ni tashkil etdi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 185,0 mlrd. so‘m (8,9 % va 2,3 martaga oshdi), Xorijiy investitsiyalar 600,3 mlrd. so‘m (28,9 % va 7,1 martaga oshdi), Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 105,1 mlrd. so‘m (5,1 % va 35,3 % ni tashkil etdi), Respublika byudjeti 172,8 mlrd. so‘m (8,3 % va 2,5 martaga oshdi), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 2,8 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 57,8 foizli punktga oshdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

*Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga oshdi.*

*Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash ishlari va gaz ta‘minoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yo‘l yo‘lovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari bo‘yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.*

*Shuningdek, yuqori o‘shish sur‘ati ko‘rsatkichi xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan kuzatilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 184,2 % ni tashkil qildi.*

***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar:***


	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:		
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2076,7</b>	<b>172,8</b>	<b>595,3</b>	<b>255,5</b>
Nukus sh.	368,4	25,1	240,0	5,5
tumanlar:				
Amudaryo	129,8	9,5	25,5	32,1
Beruniy	80,0	8,0	20,5	38,9
Bo'zatov	22,6	8,2	3,1	4,2
Qorao'zak	372,9	7,0	62,6	7,0
Kegeyli	27,3	9,4	4,8	5,8
Qo'ng'iro't	194,4	9,8	48,4	8,5
Qonliko'l	50,9	6,5	24,8	13,6
Mo'ynoq	347,2	30,5	69,9	2,7
Nukus	40,8	5,5	13,4	16,2
Taxiatosh	35,9	2,3	22,9	3,9
Taxtakopir	19,1	5,3	3,5	6,7
To'rtko'l	131,6	4,9	32,9	37,4
Xo'jayli	56,7	25,3	8,7	7,2
Chimboy	58,7	9,5	5,9	28,8
Shumanay	18,0	3,9	1,7	10,5
Ellikqala	122,4	2,1	6,7	26,5

	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>			
	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi</i>	<i>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</i>	<i>Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>890,4</b>	<b>2,8</b>	<b>-</b>	<b>159,9</b>
<i>Nukus sh.</i>	66,2	1,9	-	29,7
<i>tumanlar:</i>				
<i>Amudaryo</i>	53,3	-	-	9,4
<i>Beruniy</i>	2,2	-	-	10,4
<i>Bo'zatov</i>	2,0	-	-	5,1
<i>Qorao'zak</i>	294,9	0,2	-	1,2
<i>Kegeyli</i>	-	0,1	-	7,2
<i>Qo'ng'iro't</i>	104,3	-	-	23,4
<i>Qonliko'l</i>	0,3	0,6	-	5,1
<i>Mo'ynoq</i>	238,0	-	-	6,1
<i>Nukus</i>	-	-	-	5,7
<i>Taxiatosh</i>	1,5	-	-	5,3
<i>Taxtako'pir</i>	0,3	-	-	3,3
<i>To'rtko'l</i>	42,0	-	-	14,4
<i>Xo'jayli</i>	-	-	-	15,5
<i>Chimboy</i>	9,4	-	-	5,1
<i>Shumanay</i>	-	-	-	1,9
<i>Ellikqala</i>	76,0	-	-	11,1


## 2023- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar







*o'sish sur'ati, % da*      *Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm*      *Respublikadagi ulushi, % da*





**Qo'ng'iro't tumani**




**Qonliko'l tumani**





**Mo'ynoq tumani**




**Nukus tumani**




**Taxiato'sh tumani**



**Taxtako'pir tumani**








Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘ati 349,9 % ga o‘sib, Qorao‘zak tumanida kuzatildi. Bu Tebin buloq temir ruda konini o‘zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurishga (1-bosqich) o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

Shuningdek, Qonliko‘l tumanida ham yuqori o‘sish sur‘ati kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 249,2 % ni tashkil qildi. Qonliko‘l tumanida ijtimoiy soha obyektlarini yangi qurilish va rekonstruksiya qilish ishlariga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

**2023- yil yanvar-mart oylarida  
asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan  
investitsiyalarning o‘sish sur‘atlari,  
% da**



**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan  
investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da**



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo‘yicha 1008,1 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 48,5 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga 896,3 mlrd. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 43,2 %) va boshqa harajatlarga 172,3 mlrd. so‘m (8,3 %) o‘zlashtirildi.

Tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qonliko‘l tumanida kuzatildi – 78,0 % yoki 39,7 mlrd. so‘m, va ushbu tumanda mashina, uskuna va inventarlar bo‘yicha eng quyi daraja – 9,9 % yoki 5,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja Taxiatosh tumanida kuzatilib, 19,8 % ni yoki 7,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Yangi qurilish-  
25,2 %

Kengaytirish,  
rekonstruksiya,  
modernizatsiya - 53,8 %


Boshqa yo‘nalishlar-  
21,0 %

*Joriy hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo‘naltirildi. Va hajmi 1118,2 mlrd. so‘m va jami hajmdan ulushi 53,8 % tashkil etdi.*

*Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 524,1 mlrd. so‘m va jami hajmdan ulushi 25,2 % tashkil etdi.*

*Boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 434,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 21,0 % ini tashkil etdi.*

***Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, yakunga nisbatan % da***



**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar**

*mlrd. so‘m*

	<i>Jami</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar</i>	<i>O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar</i>	<i>Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>890,4</b>	<b>600,3</b>	<b>185,0</b>	<b>105,1</b>
<i>Nukus sh.</i>	66,2	33,1	33,1	-
<i>tumanlar:</i>				
<i>Amudaryo</i>	53,3	-	51,0	2,3
<i>Beruniy</i>	2,2	-	-	2,2
<i>Bo‘zatov</i>	2,0	-	-	2,0
<i>Qorao‘zak</i>	294,9	294,9	-	-
<i>Kegeyli</i>	-	-	-	-
<i>Qo‘ng‘irot</i>	104,3	74,7	29,6	-
<i>Qonliko‘l</i>	0,3	-	-	0,3
<i>Mo‘ynoq</i>	238,0	191,6	-	46,4
<i>Nukus</i>	-	-	-	-
<i>Taxiatosh</i>	1,5	-	-	1,5
<i>Taxtako‘pir</i>	0,3	-	-	0,3
<i>To‘rtko‘l</i>	42,0	6,0	-	36,0
<i>Xo‘jayli</i>	-	-	-	-
<i>Chimboy</i>	9,4	-	-	9,4
<i>Shumanay</i>	-	-	-	-
<i>Ellikqala</i>	76,0	-	71,3	4,7

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 890,4 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 42,9 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 600,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo‘lsa 290,1 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da

**8,5 %**



*Qishloq xo‘jaligi*

**8,4 %**



*Tog‘-kon sanoati*

**65,5 %**



*Qayta ishlash sanoati*

**5,4 %**



*Tashish va saqlash*

**1,8 %**



*Elektr energiyasi, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash*

**1,1 %**



*Axborot va aloqa*

**9,3 %**

*Boshqalar*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi*

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
222-75-91